

## BO'LAJAK SPORTCHI-MURABBIYLARDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Buxoro muhandislik - texnologiya Instituti  
Jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi  
Hamrayev Bahtiyor To'liyev*

### ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar tayyorlash jarayonida texnologik kompetentligining rivojlanishi ahamiyati, uning pedagogik faoliyatda pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonlaridagi murakkab vazifalarni hal qilishga ko'maklashuvchi ta'lim faoliyati sub'ektlarining mustaqil o'qish va o'rganish, o'z o'zini kamolga yetkazish, namoyon bo'lishi ifoda etilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologik kompetentlik, pedagogik faoliyat, pedagogik texnologiya, mustaqil o'qish, bilim, malaka va ko'nikma, faollik,

### АННОТАЦИЯ

В статье выражена значимость развития технологической компетентности в процессе подготовки педагогов в высших учебных заведениях, ее проявление в педагогической деятельности в таких инновационных аспектах, как самостоятельное чтение и обучение, самосовершенствование, самомобилизация и актуализация субъектов образовательной деятельности образовательных процессах.

**Ключевые слова:** технологическая компетентность, педагогическая деятельность, педагогическая технология, самостоятельное обучение, знания, умения и навыки, активность,

Jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida aksariyat "organ-vosita" tizimlari nafaqat texnik taraqqiyot, balki insonning psixik evolyutsiyasi va uning psixologikfiziologik funktsiyalarining tezlashishi va takomillashishining yutug'i bo'ldi, shaxs nazariyasida shaxsning tuzilmasida intellektning mohiyatiga aksariyat hollarda e'tibor qaratilmagan, shaxsning bir tomonlama intellektuallashtirishning oqibatlarida haqida xavotirli fikrlar bildirilgan, ayni shu vaqtda: "intellekt nazariyasida, shaxsning intellektual funktsiyalarini bevosita ifodalovchi uning ijtimoiy va psixologik tavsiflariga kam e'tibor qaratilgan. Shaxs va intellektning bunday o'zaro ajratib qo'yilishi, bizning tasavvurimizda insonning real rivojlanishiga teskari jarayon sifatida gavdalanadi, bunda ijtimoiy funktsiyalar, jamiyatning muomalasi va motivatsiyalar har doim inson tomonidan uni o'rab turgan olamni aks ettirish jarayoni bilan, ayniqsa jamiyatni, insonlarni va o'zo'zini bilish bilan bog'liqdir. Adabiyotlar tahlili va metodlar Texnologiklik bosqichining muhim o'ziga xos xususiyatlari ta'lim

faoliyati sub'ektlarini intellektuallashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi. Buni pedagogik madaniyat va ijtimoiy tajribalar ko'chish funktsiyalarining "Insonni shakllantirish funktsiyalariga" ko'chish deb tushuni mumkin [1]. Ta'lim jarayonlarini texnologiyalashtirishning talablariga muvofiq texnologik kompetentlikning tavsiflariga quyidagilarni kiritishni lozim deb topdik: - texnologik ta'minlanganlikning (adekvatligi) mosligi (o'quv faoliyatini tashkillashtirishning usul va vositalari); -o'zlashtirilgan bilimlarni qayta takrorlash asosida mustahkamlash jarayonlarini boshqarish; -pedagogik faoliyat rolining o'sib borishi; -pedagogik texnologiyalarning takrorlanuvchanligi; -pedagogik tajribalarning uzatilishi, ko'chishi; -ommaviy natijalarning kafolatlanishi va boshqalar.

So'nggi paytlarda lug'atimizda "kasbiy kompetentlik" atamasi muomalaga kirib keldi. Tadqiqotimizdagi asosiy tushuncha bu zamonaviy mutaxassis mahorat darajasining asosiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblangan "texnologik kompetentlik" tushunchasidir. Muammoli-modulli ta'lim texnologiyasi muallifi M.A.Choshanov shunday ta'kidlaydi "kasbiy pedagogika tizimida "kompetentlik" atamasi o'zining barqaror o'rniga ega emas, hozircha aksariyat hollarda undan mutaxassisning yetarli darajadagi malakasi va professionalligini ta'riflashda foydalanilmoqda" [3]. Olimlar tomonidan kompetentlikning uch xil darajasi aniqlangan, bular; minimal, medial va maksimal. Shunga asosan bu uchta darajadan har bittasiga mos keluvchi komponentlarni qo'shib "Kompetentlik formulasi"ni keltirib chiqarish mumkin: bilimlar harakatchanligi usullarning moslashuvchanligi fikrlashning tanqidiyligi. Natija Biz ta'lim jarayonlariga "texnologik yondoshuv" nuqtai nazaridan mazkur kompetentlik tushunchasini chuqurlashtirib:

"bilimlar harakatchanligi"- instrumentallashtirilgan kasbiy-pedagogik invariantlarning to'laqonliligiga tayanishi lozim;

"usullarning moslashuvchanligi"-faoliyatni tashkillashtirishning texnologikibernetik modellariga tayangan holda universal va noyob komponentlarning uyg'unlashuvi orqali aniqlanadi;

"fikrlashning tanqidiyligi"-ta'liminag kreativ-texnologik va aksiologik qat'iy talablariga asoslanishi lozim deb hisoblaymiz. Ta'lim texnologiyalarining paydo bo'lishi va ularning pedagogik amaliyotga joriy etilish jarayonlarini tadqiq qilib, T.S.Nazarova shunday yozadi "Pedagogik texnologiya ta'lim texnologiyalarining amalga oshirilish taktikasini aks ettiradi va ta'lim berishning ma'lum bir sharoitlarida (yakka tartibda, guruhlarda, jamoalarda va ommaviy) "pedagog-moddiy muhit-ta'lim oluvchi" tizimining faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini bilishga asoslanadi [3]. Qanday fanni o'rganishdan qat'iy nazar o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish qonuniyatlari va umumiy xususiyatlari bu texnologiyaga xosdir. Pedagogik texnologiya fan va amaliyotning turli jabhalarida keng tarqalgan maxsus texnologiyalarni qamrab oladi, va ular quyidagilar: yangi axborot texnologiyalari, sanoat (ishlab chiqarish)

texnologiyalari, elektron texnologiyalar, poligrafik texnologiyalar, -tibbiyot va boshqa texnologiyalar.

Xulosada shuni aytish mumkinki, ta'limni texnologiyalashtirish bosqichida biz tomonimizdan tizimlilik, insonparvarlik, shaxsiy-faoliyatiy va texnologik yondoshuvlar nuqtai nazaridan texnologiyalashtirilgan faoliyat sub'ektining pedagogik fazilatlarini maqsadli rivojlantirish uchun boshqaruvchilik va shakllantiruvchi komponentlarga ehtiyojning juda ham zarurligi aniqlandi. Shaxsga-yo'naltirilgan texnologik kompetentlik bioijtimoiy asosga ega. Ijtimoiy nuqtai nazardan ta'limni texnologiyalashtirish deganda ta'limning betartibliigi, ta'lim va tarbiya jarayonlari natijalarining oldindan bilib bo'lmaydigan va tarqoq bo'lishini bartaraf etuvchi pedagogning kasbiy-shaxsiy fazilatlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda vositalarining ishlab chiqilishi tushuniladi. Bunga erishish mumkin: agar, pedagogik faoliyatning asosiy turlari, biologik organning ish faoliyati va mukammal tafakkur mahsulidir.

### Adabiyot:

1. Жўраев Р.Х., Тайлақов Н.И. Ахборотлашган таълим муҳити–ўқитиш самарадорлигини ошириш воситаси. Узлуксиз таълим. –2004.– №3. –Б. 3–7.
2. Фуломов. Х.Р. Раимов. ва бошқалар. “Таълим–тарбия сифати ва қирралари”. Т; «Фан ва технологиялар». 2004. Бетлар. 9. 3. Тайлақов Н.И. Узлуксиз таълим тизими учун информатикадан ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг илмий педагогик асослари. Монография. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат нашриёти, 2005. – 160 б.
3. Азимова Н. Э. Роль профессионального педагога в подготовке гармонично развитой личности //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. - 2018. - №. 5-1.
4. Хо‘jaev P., Rahimqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. (Harakatli o‘yinlari) O`quv qo`llanma TDPU T.: 2008 y
5. Хожиева М. Ш., Хамраев Б. Т. Нравственное воспитание младших школьников //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 41-45.